



**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**TARJIMA ISHINI TIZIMLI LOYIHALASHTIRISH
MODULI UCHUN**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**Malaka oshirish kursi yo‘nalishi:
O‘zbek–ingliz tarjima nazariyasi va amaliyoti**

**ALISHER
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Toshkent-2023

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

M.Y.Umarova – filologiya
fanlari doktori,dotsent

Taqrizchi:

Z.Teshaboyeva – filologiya fanlari
doktori, dotsent

U.Yo‘ldoshev – filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dots., v.b

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining
2022-yil 29-dekabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

MUNDARIJA

T/r	BO‘LIMLAR	SAHIFA
I.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	13
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	26
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	40
V.	KEYSLAR BANKI	52
VI.	GLOSSARIY	55
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	65

I. ISHCHI O‘QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Bugungi globallashuv va integrallashuv jarayonida kompyuter texnologiyalari kiberfazoning muhim va ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Sohalararo fanlarning yuzaga kelishida kompyuter taraqqiyotida erishilgan natijalar kuchli ta'sir qilganligi hech kimga sir emas. Endilikda filologik sohalar axborot texnologiyalariga va aksincha axborot texnologiyalarning filologik ta'limga ta'sirlashuvi natijasida fan oldida turgan murakkab masalalar o'z yechimlarini topib kelmoqda.

"Tarjima ishini tizimli loihalashtirish" moduli Oliy ta'lim professor-o'qituvchilari malakasini oshirish tizimi oldidagi davr talabiga mos ravishda tuzilgan kurs sifatida e'tirof etish mumkin. So'ngi yillarda mamlakat hayotida yuz berayotgan keng

ko‘lamli islohatlar samarasini oshirish maqsadida xorijiy tillarini yoshlarga chuqur o‘rgatish, ularini zamon talablariga mos yetuk kadr etib tayyorlash til ta’limida yangi pedagogik metodlar va texnologiyalarini yaratishni taqozo etmoqda.

Til ijtimoiy hodisa ekan undagi muammolarni yechishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Tarjima ishini tizimli loihalashtirish fani shu sohada faoliyat olib borayotgan yosh kadrlar, professor-o‘qituvshilarining sohadagi so‘ngi yangiliklar va bilimlarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni tizimli loihalashtirish bo‘yicha dunyo tajribasiga tayanish hamda erishilgan yuksak natijalardan oqilona foydalanish talab etiladi.

Erishilgan ilmiy yutuqlardan foydalangan holda ushbu kurs tarjima ishini tizimli loihalashtirishning dolzarbligi va muammolar, tarjima qilish davomida tarjimani tizimli tarzda loyihalash, tarjimani zamon texnologiyalari asosida olib boorish va maqsadga erish, murakkabdan oson uslubga qarab yo‘nalish kabi masalalrni maqsad qilib qo‘yadi.

Modulning maqsad va vazifalari

“Tarjima ishini tizimli loihalashtirish” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilarida sohaga doir bilimlarni rivojlantirish, ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushuntirish, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiya borasida tinglovchilarga zamonaviy bilimlarni egallash. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talablari nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar ilmiy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali erishiladi. “Tarjima ishini tizimli loihalashtirish” kursi malaka oshirish kursi tinglovchilarida yangicha ilmiy yondashuvlarni ta’lim sohasi va ilmiy tadqiqot uchun keng tadbqiq etishga ko‘maklashish, ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Ushbu modulning vazifalari quyidagilardan iborat:

- kurs tinglovchilarini tarjima qilishda tizimlilikka ahamiyat berish aspektlari bilan bog‘liq tilshunoslikdagi tarjima sohasida olib borilayotgan ilmiy yangiliklar bilan tanishtirish;

- professor-o‘qituvchilarda OTMlarda tizimli tahlilning shakllanish va rivojlanishdagi yangi metodlar va innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali yozma va og‘zaki tarjima usullarini egallashi va ularni tinglovchilar pedagogik faoliyat joriylantirish;
- qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida tarjima jarayonida yuzaga keladigan tizimli loyihalashtirish muammolar va ularga yondashish;
- tarjima jarayonida tizimli loyihalash bo‘yicha xalqaro tajribalar va ularning faoliyati, shunigdek jahon tarjima ishlaridagi zamonaviy yondashuvlar bilan tanishtirish;
- badiiy matnga tizimli yondashuv jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash tamoyillari bilan tanishtirish.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka darajasiga qo‘yladigan talablar

“Tarjima ishini tizimli loyihalashtirish” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi kerak:

- har qanday matn tarjimasini tizimli loyihalash usulini egallashi va ulardan unumli foydalanishi;
- jahonda tarjima ishini tizimli loyihalashtirish faoliyati haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llashi;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanishi;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, texnologik va ekspluatasion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- auditoriya va pedagogik jamoani boshqarish hamda o‘quv jarayonini o‘rnatilgan tartibda tashkil qilish;
- tarjimashunoslikka doir tadqiqotlarda tizimli tahlil tamoyillaririni qo‘llashni

bilish;

- loyihalashtirishda zamonaviy texnologiyalar asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- tarjimashunoslik tizimi va badiiy matn tuzilmasi tahlil qilish;

- o'quv fanining o'qitish metodikasini egallashi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib tizimli tahlil jarayonlarini egallab, noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi.

Ushbu modul tinglovchida quyidagi **ko'nikmalarni** shakllantirishga xizmat qiladi:

- Tarjimani tizimli loyihalashtirish bo'yicha ilg'or tajribalardan foydalanish;
- tarjima jarayonida qo'llaniladigan ta'moyillar umumiy va farqli jihatlarini chuqur o'zlashtirish;
- kurs bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni ta'lim jarayonida foydalana olish;
- pedagogik faoliyat davomida kursda egallangan bilim va malakalarini ta'limda joriylanishini baholash va yutuq va kamchiliklarini ajrata olish.

Ushbu modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar quyidagi **malakalarni** egallashlari mo'ljallanadi:

- tarjimani tizimli loyihalash jarayoni, uning xilma-xillik nazariyasiga oid fundamental bilimlar va asoslari, tarjimaning asosiy shakl va turlari, tarjima metodlarini bilish haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- tarjima ishini tizimli loyihalashtirishga oid bosqichlari farqlash; ularni o'zaro bog'liqligi va uning tarjima jarayonida uyg'un holda yuzaga kelishini o'rganish; tarjima jarayonida turli badiiy matnlarni tizimli loyihalashni taxlil qilish;

tizimli tahlilda miqdoriylik va sifat belgilarini aniqlash va ularni qo'llash usullarini o'rganish;

matn tarjimasida individual yondashuvda tizimlilikni qo'llash;

tinglovchilarda ijodiy va tizimli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish

- tahlil jarayonlarining ketma-ketligi va yaxlitligiga erishish;

-tarjimashunoslik tizimi va badiiy matn tuzilmasi ifodalanishiga erishish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Tarjima ishini tizimli loyihalashtirish” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o’qitishning zamonaviy usullari, badiiy adabiyot va estetika ilmidagi eng so’nggi yutuqlardan foydalanish ko’zda tutilgan:

- ma’ruza shaklidagi saboqlarda milliy va chet el adabiyot metodikasi fanlaridagi so’nggi yutuqlardan foydalanish;
- masofadan o’qitish orqali tinglovchilarning tarjima ishini tizimli loyihalashtirishga doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg’ulotlarda ta’limning fikriy hujum, kichik guruhlar bilan ishlash singari interfaol usullarini qo’llash ko’zda tutiladi.

Modulning o’quv rejadagi boshqa modullar bilan bog’liqligi va uzviyligi

“Tarjima ishini tizimli loyihalashtirish” moduli o’quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog’langan.

Modulning Oliy ta’limdagi o’rni

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar “Tarjima ishini tizimli loyihalashtirish” mutaxassislik fanini o’qitishning eng ilg’or yo’llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan adabiy yaratishlar to’g’risida fikr bildirish ko’nikmasi shakllantiriladi. Natijada, fanni o’qitish samaradorligini sezilarli oshiradi.

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Tarjima ishini tizimli loihalashtirish. Tizimli tahlilning terminologik asoslari va yo‘nalishlari	2	2	
2.	Badiiy matnga tizimli yondashuv	2	2	
3.	Tizimli tahlilda miqdoriylik va sifat.	2	2	
4.	Tarjimushunoslik va tizimli tahlil asoslari, barcha imkoniyatlar tizimi	2		2
5.	Badiiy tarjimada tizimli ketma-ketlik va yaxlitliqlikning ahamiyati	2		2
6.	Tarjimashunoslikka doir tadqiqotlarda tizimli tahlil tamoyillari	2		2
7.	Tizimli tahlilda miqdoriylik va sifat masalasi.	2		2
8.	Tarjimonda ijodiy va tizimli yondashuv ko‘nikmasini shakllantirish	2		2
	JAMI	16	6	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tarjima ishini tizimli loihalashtirish. Tizimli tahlilning terminologik asoslari va yo'nalishlari. Ushbu ma'ruza mashg'uloti tajimani tizimli loyihalashtirishga oid bo'lgan bilim va ma'lumotlar bazasiga kirish qismi hisoblanadi va bunda tinglovchi tarjimaning tizimli loyihalashtirishning ahamiyati va dolzarbligi xususida fikr yuritadi hamda o'zaro bahs-munozara olib boradi.

2-mavzu. Badiiy matnga tizimli yondashuv. Badiiy matn tarjimasi badiiy matnni o'rganishning asosiy yondashuvi masalalarini qamrab olgan ushbu 2-ma'ruza mashg'ulotida badiiy matnga tizimli yondashuv, tahlil jarayonlarining ketma-ketligi va yaxlitligi haqida so'z boradi. O'quvchi ushbu ma'ruza davomida badiiy matn tarjimasida tizimli yondashuv haqida fikr almashadi.

3-mavzu. Tizimli tahlilda miqdoriylik va sifat. Tarjima qilish jarayonida miqdoriylik va sifat qanday ahamiyatga ega? Miqdoriylik va sifatni belgilovchi strategiyalar haqida kursning joriy qismida ma'lumot beriladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishida tajima jarayonini kechisi haqida so'z boradi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy didaktik ta'minot va laboratoriya jihozlariga ega bo'lgan auditoriyalarda hamda internet tarmog'iga ulangan kompyuter sinflarida, tayanch oliy ta'lim muassasalarining kafedralarida tashkil etiladi.

1-mavzu. Tarjimushnoslik va tizimli tahlil asoslari, barcha imkoniyatlar tizimi. Tarjimada tizimli tahlilning o'ziga xos xususiyatlari zamonaviy dasturlarda dolzarbligi to'g'risida fikr-mulohaza yuritish va ma'ruza jarayonida olingan bilim-ko'nikmalarni mustahkamlash ushbu amaliy mashg'ulot jarayonida amalga oshiriladi.

2-mavzu. Badiiy tarjimada tizimli ketma-ketlik va yaxlitliqlikning ahamiyati. Badiiy tarjimaning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari. Badiiy tarjimani tizimlashtirish bu amaliy mashg'ulotda muhokama qilinadi va bilim, malaka va ko'nikmalar yanada mustahkamlanadi.

3-mavzu. Tarjimashunoslikka doir tadqiqotlarda tizimli tahlil tamoyillari.

Tarjimaning turli jihatlarini (psixologik, adabiy, etnografik, tarixiy, lingvistik) o'rganuvchi ilmiy fanlar majmui va buning qanday ta'siri borligi xususida bahs-munozara olib boriladigan mashg'ulotdir. Bunda ilmiy tadqiqotlarda tarjimaning ahamiyati va tahlil maslalariga to'htalinadi va amliyotda fikr almashiladi.

4-mavzu. Tizimli tahlilda miqdoriylik va sifat masalasi. Tarjimani tizimli loyihalashtirishda miqdoriylik va sifat masalasiga alohida to'htalinib ushbu jarayonda qo'llaniladigan metod va strategiyalar turlari, ularning farqli jihatlar va o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr almashiladi va amaliyotda sinab ko'riladi.

5-mavzu. Tarjimonda jjodiy va tizimli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish. Tarjima qilish jarayonida tizimli yondashuv ko'nikmasini shakllantirishda qator amal qilinishi lozim bo'lgan maslalarga to'htalinadi va har bir talabgor bittadan maxsulotni loyihalashtirib guruhga taqdim etadi.

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ta'lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta'limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo'yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatish.
- yangicha yondashuv metodlari ustida izlanishlar olib borish;
- aniq bir matn tarjimasi talqiniga olingan nazariy bilimlarni tatbiq etish.

II. MODULNI O‘QITISHDA TA’LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to'siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi.
T	To'siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko'chma mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga



va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy

Namuna:

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**” – inglizcha soʻz boʻlib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash

2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she'riy) matnni tahlil qilish uchun ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	– fikringizni bayon eting
S	– fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	– ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	– fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:

Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna:

Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma’no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura		
	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

“Venn diagrammasi” metodi


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna:

Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi


Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.


Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnni o‘z yozuvida o‘qish					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					




Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



III. NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



MAVZU №1 : TARJIMA ISHINI TIZIMLI LOIHALASHTIRISH.

TIZIMLI TAHLILNING TERMINOLOGIK ASOSLARI VA YO'NALISHLARI

REJA:

1. Tarjimushunoslik va tizimli tahlil asoslari, barcha imkoniyatlar tizimi.
2. Tizimli tahlilning tizimli yondashuvdan farqli jihatlari.
3. Tizimli tahlilning shakllanish va rivojlanish bosqichlari.
4. Ilmiy va nazariy masalalarning tarjima amaliyotidagi tizimli tahlili.

Kalit so'zlar: Tizimli tahlil, zamonaviy tarjimashunoslik, nazariy tavsif,

1. Tarjimushunoslik va tizimli tahlil asoslari, barcha imkoniyatlar tizimi.

Tizimli tahlil - murakkab ob'ektlarni tizim sifatida ko'rsatish va ushbu tizimni tahlil qilish orqali o'rganish tamoyillarni, usullar va vositalarni o'rganadigan ilmiy-uslubiy fan. Tizimli tahlilning asosiy maqsadi ko'rib chiqilayotgan mavzudagi muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini topishdir. Tizimli tahlil jarayonin amalga oshirish natijasida murakkab muammolarni hal qilish metodologiyasi yotadi.

Tizimli tahlil har bir tizim alohida bir-biriga bog'liq bo'lmagan quyi tizimlardan iborat bo'lsa ham, yaxlit bir butun ekanligini anglatadi. Tizimli tahlil o'rganilayotgan ob'ektni umumiy maqsad bilan birlashtirilgan o'zaro bog'liq bo'lgan quyi tizimlar majmuasi sifatida ko'rishga imkon beradi: uning integral xususiyatlarini, ichki va tashqi aloqalarini ochish.

Tarjima amaliyotini va zamonaviy tarjimashunoslikning kontseptual sohasini tizimli tahlil qilish tarjimini tayyorlash, amalga oshirish, taqdim etish va

ishlashining turli jihatlarini umumlashtiruvchi va tarjima faoliyatining boshqa asosiy tarkibiy qismlari bilan bog'liq bo'lgan tarjimalarning yagona tipologiyasini yaratishga imkon beradi.

2. Tizimli tahlilning tizimli yondashuvdan farqli jihatlari.

Tizimli tahlil - bu murakkab muammolarni hal qilishda fanlararo yondashuv bilan tavsiflangan ilmiy usul. Tizim tahlilining ob'ekti yangi tizimlarni yaratish va mavjud tizimlarni modernizatsiya qilish bilan bog'liq amaliy muammodir. Ko'pincha quyidagi tamoyillar tizimli hisoblanadi:

1. yakuniy maqsad printsipi,
2. o'lchov printsipi,
3. barqarorlik printsipi,
4. birlik printsipi, \
5. ulanish printsipi,
6. modulli qurilish printsipi,
7. ierarxiya printsipi,
8. funkcionallik prinsipi,
9. rivojlanish tamoyili (tarixiylik, ochiqlik),
10. markazsizlashtirish tamoyili.

Tizimli yondashuv - bu har qanday tizim (ob'ekt) chiqish (maqsad), kirish (resurslar), tashqi muhit bilan bog'liqlik, teskari aloqaga ega bo'lgan o'zaro bog'liq elementlar (komponentlar) yig'indisi sifatida qaratilgan yondashuv. Ushbu yondashuv murakkab yondashuvlardan hisoblanadi.

Tarjimaga tizimli yondashishning uslubiy ahamiyati tarjimaning o'zaro bog'liq hodisalar tizimi sifatida yaxlitligini ochib berishga, tizimning yaxlitligini ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlashga e'tibor qaratishdadir. Shu bilan birga, tarjimada ham, uning tashqi dunyo bilan munosabatlarida ham mavjud bo'lgan turli xil aloqa turlarini aniqlashga alohida e'tibor beriladi. Bu yondashuv tarjima haqidagi turli bilimlarni yagona nazariy tizimga keltirish imkonini beradi.

Zamonaviy gnoseologiyada markaziy o'rinlardan birini egallagan tizimli yondashuv ob'ektning har qanday sub'ekt tomoniga qaratilgan boshqa yondashuvlar

bilan solishtirganda yanada kengroq anglash mumkin bo'lgan voqelikni yoritishga imkon beradi. Tarjimaga tizimli yondashish individual adabiy-tanqidiy, lingvistik, faoliyat yoki boshqa har qanday yondashuvga nisbatan tarjimaning to'liqroq, batafsilroq va izchil nazariy manzarasini ifoda etadi.

Tizimli yondashuv tarjima faoliyatining yaxlitligini ta'minlovchi mexanizmlarni tushuntirishning yangi sxemasini nazarda tutadi. Bu esa tarjima faoliyatida aniqlangan barcha xilma-xil aloqa va munosabatlarni bir xil mantiqiy asosda bir-biri bilan solishtirish imkonini beradi.

Deyarli har qanday ob'ektni nazariy tavsifda tizim sifatida ifodalash mumkin. Agar biz tarjimani tizim sifatida ifodalamoqchi bo'lsak, unda tizimning asosiy belgilari unda qanday namoyon bo'lishini kuzatishimiz kerak, ya'ni:

1. yaxlitlik,
2. Shakli (tuzilishi),
3. Tizim va muhitning o'zaro bog'liqligi,
4. Ierarxiya,
5. Tavsifning rangbarangligi.

Agar siz asliyatni tarjima qilish jarayonini tizimli hodisa sifatida tasavvur qilishga harakat qilsangiz, unda tizimning barcha sanab o'tilgan xususiyatlariga ega yoki yo'qligini aniqlashingiz kerak.

3. Tizimli tahlilning shakllanish va rivojlanish bosqichlari.

Tizimli tahlilni o'tkazishda muammoli vaziyatni shakllantirishga, tizimning umumiy maqsadini, uning alohida quyi tizimlarining maqsadlarini aniqlashga, erishish uchun turli xil alternativalarini ilgari surishga qaratilgan jarayonlar yig'indisi qo'llaniladi. Muayyan samaradorlik mezonlari bo'yicha taqqoslanadigan ushbu maqsadlar, shuningdek qarorlarni amalga oshirish jarayonida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan real vaziyatning barcha omillari va munosabatlarini aks ettiruvchi umumlashtirilgan modelni (yoki modellarni) qurish, buning natijasida muammoli vaziyatni hal qilish va tizimning kerakli (maqsadli) holatiga erishishning eng maqbul usuli tanlanadi.

Tizimning muhim xususiyatlaridan biri ularning faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligidir. Tizim tahlilida maqsad tizimning mavjud bo'lmagan, lekin istalgan holatining sub'ektiv tasviri (mavhum modeli) sifatida tushuniladi. Maqsad samaradorlik ko'rsatkichlari, resurslarning intensivligi, tizimning samaradorligi yoki berilgan natijaga erishish traektoriyasiga qo'yiladigan talablar bilan belgilanishi mumkin. Tashqi muhitning ma'lum bir holati (masalan, samarasiz) sharoitida tizimning mavjud va zarur (maqsadli) holati o'rtasidagi nomuvofiqlik muammoli vaziyat deb ataladi.

Tizimli tahlil har qanday alohida ekspertning mulohazalari asosida qiyinchiliklarini yengib bo'lmaydigan yechimlarni topishda ko'plab sohalardagi mutaxassislarning bilim va tajribasini birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yaxlitlikni saqlash vositalarini ishlab chiqish zarurati va etarli emasligini tushunib, so'nggi paytlarda ular tizimli tahlilni rasmiylashtirilgan umumiy ma'no sifatida ta'rifiga, tizim tahlilini matematik yordamni talab qiladigan san'at sifatida tushunishga, yaxlitlik naqshlarini chuqurroq o'rganishga qaytadilar. va uning shakllanishi va saqlanishida shaxsning roli.

4. Ilmiy va nazariy masalalarning tarjima amaliyotidagi tizimli tahlili.

Tizimli tahlil - ilmiy –amaliy fan bo'lib, uning yakuniy maqsadi tizimli tadqiqot ob'ekti oldidan yuzaga kelgan muammoli vaziyatni hal qilish, ya'ni mavjud vaziyatni qo'yilgan maqsadlarga muvofiq o'zgartirishdir. Tizimli tahlil

1. muammoli vaziyatni o'rganish,
2. uning sabablarini aniqlash,
3. uni bartaraf etish variantlarini ishlab chiqish,
4. qaror qabul qilish
5. muammoli vaziyatni hal qiladigan tizimning keyingi faoliyatini tashkil etish bilan shug'ullanadi.

Tizim tahlilining to'g'riligi va foydaliligi to'g'risida yakuniy xulosa faqat uni amaliy qo'llash natijalari asosida amalga oshirilishi mumkin. Yakuniy natija nafaqat tahlilda qo'llanilgan usullarning qanchalik mukammal va nazariy jihatdan

asoslanganligiga, balki olingan tavsiyalarning qanchalik to'g'ri va samarali amalga oshirilishiga ham bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, tizimli tahlil usullarining asosiy xususiyati ulardagi rasmiy usullar va rasmiylashtirilmagan (ekspert) bilimlarning uyg'unligidir.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Tizim tahlil nimani o'z ichiga oladi?
2. Tizimli tahlil tamoyillari qanday?
3. Tizimli tahlilning tizimli yondashuvdan farqli jihatlari qanday?

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Tizim li tahlil asoslari: darslik/ V.A. Karimova, M .B. Zaynutdinova, E.Sh. Nazirova, Sh.Sh. Sadikova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekistor
2. faylasuflari m illiy jamiyati, 2014. — 192 b.
3. Валеева Н.Г. Теория перевода. Культурно-когнитивный и коммуникативно- функциональные аспекты.-Москва:РУДН,2018- 247 с
4. Гарбовский Н.К.Теория перевода: Учебник. М.: Изд-во Моск. ун-та2007. - 544 с.
5. Кузьмин В.П. Принцип системности в теории и методологии К. Маркса. — М., 1976.
6. Юдин Э.Г. Системный подход и принцип деятельности. — М., 1978. —391 с.
7. Юдин Э.Г. Проблемы методологии системного исследования. — М.,
8. 1970.
9. A Companion to Translation Studies.-Canada :Cromwell Press Ltd, 2007.- 186 p
- 10.Ellaine Cruz. On Linguistic Aspects of Translation by Roman Jakobson. 2018 г. [цитируется по 22 февраль 2023 г.]; Доступно на: <http://rgdoi.net/10.13140/RG.2.2.29411.78888>

11. Lazanski T.J. Systems Approach to a Context Dependent Modelling of Complex Systems and a Problem of Validation // *Academica Turistica I.* – 2008. – № 1. – С. 60-66.

REJA:

1. Badiiy matnga tizimli yondashuv
2. Tahlil jarayonlarining ketma-ketligi va yaxlitligi.
3. Tarjimashunoslikka doir tadqiqotlarda tizimli tahlil tamoyillari.

1. Badiiy matnga tizimli yondashuv

Badiiy matn adabiy asar ekan, u adabiy tanqidga qiziqish uygʻotadi, adabiyot sanʼat turlaridan biri boʻlgani uchun, sanʼatshunoslikda, adabiyot soʻz sanʼati ekan badiiy matnlarga qiziqish uygʻotadi. tilshunoslarning bir qismi ham adabiyotligi tabiiydir. Shunday qilib, badiiy matnni oʻrganishning uchta asosiy yondashuvi haqida gapirish mumkin: adabiyot nazariyasi (adabiyotshunoslik), sanʼat semiotikasi (semiotik) va til nazariyasi (lingvistik) nuqtai nazaridan. Bundan tashqari, ushbu uch yoʻnalish har qanday ilmiy jihatdan boshqa yoʻnalishlarga ham olib boradi. Ushbu uchta asosiy yondashuvga muvofiq, badiiy matnni oʻrganishda turli xil dolzarb tendentsiyalar rivojlandi. Ushbu uch yoʻnalishning har birida koʻplab bogʻliklik jihatlarini topishingiz mumkin. boʻlsa-da, printsiplial jihatdan bu toʻplamni triadaga qisqartirish mumkin, chunki tadqiqot yoʻnalishi asosan matnning qaysi jihatlarini tadqiqotchini qiziqtirishi bilan belgilanadi. : mazmunli, pragmatik yoki rasmiy.

Badiiy matnlarga adabiy yondashuvning oʻziga xosligi ularning sof "adabiy" jihatlarini oʻrganishdadir va uni amalga oshirishning eng mashhur yoʻnalishi tarixiy va sotsiologik boʻlib, uning vakillari davrlarning ijtimoiy va madaniy hayotiga qanday taʼsir qilganini aniqlashga intilishadi. Muallif tanlagan adabiy janrning konventsionalari orqali aks ettirilgan matn va bu matn oʻquvchi ommasining mulkiga aylanib, jamoatchilik ongini shakllantirishda qanday ishtirok etishi (V.G. Belinskiy, N.G. Chernishevskiy, D.I. Pisarev va boshqalar).). Mamlakatimizda bu yoʻnalish uzoq vaqt davomida "ruxsat etilgan" yondashuvlardan deyarli yagonasi boʻlgan.

G'arbda u "aks ettiruvchi" deb nomlangan, ya'ni. "reflektiv" va adabiyotni ijtimoiy tabaqalar kurashining aksi sifatida talqin qilgan.

2. Tahlil jarayonlarining ketma-ketligi va yaxlitligi.

Tizimli tahlil tuzilmagan muammoni zaif tarzda tuzish, so'ngra u haqida qo'shimcha ma'lumot to'plash, tarkibiy qismlarning o'zaro bog'liqligini o'rnatish, miqdoriy baho berish (hech bo'lmaganda sub'ektiv, ekspert) va muammoni tuzilganlar toifasiga o'tkazish uchun ishlatiladi. Uni har qanday fanda qo'llash mumkin.

Tizim tahlilining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muammoning mazmunli bayoni
2. O'rganilayotgan tizimning modelini qurish
3. Model yordamida muammoning yechimini topish
4. Yechimni model yordamida tekshirish
5. Yechimni tashqi sharoitlarga moslashtirish
6. Natijaga ko'ra qaror qabul qilish



Tizimli yondashuv bilan o'rganish ob'ekti tizim sifatida taqdim etiladi. Tizim tushunchasining o'zi metodologik tushunchalardan biri bilan bog'liq bo'lishi mumkin, chunki ob'ektni ko'rib chiqish tizim sifatida o'rganiladi yoki bunday mulohazadan voz kechish tadqiqotning vazifasiga va tadqiqotchining o'ziga bog'liq.

3. Tarjimashunoslikka doir tadqiqotlarda tizimli tahlil tamoyillari.

Tarjimashunoslik — tarjimaning turli jihatlarini (psixologik, adabiy, etnografik, tarixiy, lingvistik) o'rganuvchi ilmiy fanlar majmui; tarjima tilshunosligi yoki lingvistik tarjimashunoslik - tarjimani lingvistik hodisa sifatida o'rganuvchi tilshunoslikning bo'limi.

Zamonaviy ilmiy bilimlarda markaziy o'rinlardan birini egallagan tizimli yondashuv tadqiqot ob'ektning faqat biron bir predmet tomoniga qaratilgan bo'lgan yondashuvlarga nisbatan kengroq kognitiv haqiqatni qamrab olishga imkon beradi. Tarjimaga tizimli yondashuv alohida lingvistik, adabiy, faoliyat

yoki boshqa yondashuv bilan solishtirganda ushbu ob'ektning to'liqroq va batafsil nazariy tasvirini berishga qaratiladi.



mavzu bo'yicha

1. Badiiy matnning o'rganishning nechta asosiy yondashuvi mavjud Tizimli tahlil tamoyillari qanday?
2. Tizim tahlilining bosqichlari qanday?
3. Tarjimashunoslik tarjimaning qaysi jihatlarini o'rganadi?
4. Tarjimashunoslikka doir tadqiqotlarda tizimli tahlil tamoyillari nimalarni o'z ichiga oladi?

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Tizim li tahlil asoslari: darslik/ V.A. Karimova, M .B. Zaynutdinova, E.Sh. Nazirova, Sh.Sh. Sadikova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. — 192 b.
2. Валеева Н.Г. Теория перевода. Культурно-когнитивный и коммуникативно- функциональные аспекты.-Москва:РУДН,2018- 247 с
3. Гарбовский Н.К.Теория перевода: Учебник. М.: Изд-во Моск. ун-та2007. - 544 с.
4. Кузьмин В.П. Принцип системности в теории и методологии К. Маркса. — М., 1976.
5. Юдин Э.Г. Системный подход и принцип деятельности. — М., 1978. —391 с.
6. Юдин Э.Г. Проблемы методологии системного исследования. — М.,
7. 1970.
8. A Companion to Translation Studies.-Canada :Cromwell Press Ltd, 2007.- 186 p
9. Ellaine Cruz. On Linguistic Aspects of Translation by Roman Jakobson. 2018 г. [цитируется по 22 февраль 2023 г.]; Доступно на: <http://rgdoi.net/10.13140/RG.2.2.29411.78888>
- 10.Hatim B. Communication across cultures: translation theory and contrastive text linguistics. Repr. Exeter, Devon: Univ. of Exeter Press; 2000. 235 с. (Exeter language and lexicography).
11. Lazanski T.J. Systems Approach to a Context Dependent Modelling of
12. Complex Systems and a Problem of Validation // Academica Turistica I. — 2008. —№ 1. — С. 60-66.
